



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY
KOMMUNAL XO'JALIGI VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Тошкент вилояти

Toshkent viloyati Toshkent sh., 100011, Abay ko'ch., 6-uy Tel: +998 71 244-43-56, Faks: +998 71 244-26-05, e-mail: vilekspertiza@mail.ru www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: RADJABOV JAMSHID SHUXRATOVICH

Sana:09-10-2023 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 124851

Obyekt nomi «Toshkent viloyati Yangiyo'l tuman O'zbekiston MFY hududidagi "Kelajakda g'azna ochiqlash va mahallalarni qo'llab quvvatlash tashabbusi" tartibida TP va VL-0,4/6/10kVli tarmoqni yangilash va rekonstruksiya qilish»

Buyurtmachi - Toshkent viloyati "Toshkent XETK" AJ.

Bosh loyihachi - «ARM PROEKT MONTAJ» MChJ.

Litsenziya 24.07.2019-yildagi №QV-000032-sonli.

Moliyalashtirish manbai - Byudjet mablag'lari xisobidan.

Bosh pudratchi - Tanlov savdolari asosida aniqlanadi.

Qurilish turi Joriy ta'mirlash.

Murojaat raqami: № 115979

1. Loyihalash uchun asos

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-apreldagi PQ-117-son qarori.

1.2. Toshkent viloyati "Toshkent XETK" AJ tomonidan 2023-yilda tasdiqlangan "Loyiha hujjatlarini ishlab chiqarish uchun topshiriq".

1.3. Toshkent viloyati "Toshkent XETK" 2023-yil 23-iyundagi №43-04/23-sonli texnik shartlari.

1.4. Toshkent viloyati "Toshkent XETK" tomonidan 2023-yilda tasdiqlangan nuqson dalolatnomasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. Loyiha hujjatlarni ishlab chiqish bosqichida "Ishchi loyihasi" quyidagilardan iborat:

-PZ. Umumiy tushuntirish xati. Loyiha pasporti;

-RD. Ishchi chizmalarning to'plami;

-EVV.N.S. Qurilish montaj ishlarining xajmi, qurilish materiallari va jixozlarning ro'yxati.

2.2. Smeta hujjatlari joriy narxlarda QQS(12%) - 625 324,710 ming so'm.

2.3. Buyurtmachining 2023-yil 15-sentyabrdagi №115979-sonli murojati.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Ishchi loyiha «Toshkent viloyati Yangiyo'l tuman O'zbekiston MFY hududidagi "Kelajakda g'azna ochiqlash va mahallalarni qo'llab quvvatlash tashabbusi" tartibida TP va VL-0,4/6/10kVli tarmoqni

yangilash va rekonstruksiya qilish» quyidagi asosiy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan:

-Toshkent viloyati "Toshkent XETK" AJ tomonidan 2023-yil 23-iyunda berilgan №43-04/23-soni "Texnik shartlar";

- Q'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.04.2023-yildagi PQ-117-son qarori;

- Elektr tarmoqlarini loyihalashtirish, qurish va foydalanishga topshirish me'yoriy hujjatlari.

3.2. Loyihaga quyidagi O'zbekiston MFY ishlar kiritilgan:

-uzunligi 2,70 km bo'lgan ikki sepli VLI-0,38 kV tarmoqni rekonstruksiya;

-eskirgan yog'och ustunlarni yangi zamonaviy temir beton ustunlarga almashtirish;

-eskirgan elektor simlarni zamonaviy izolyatsiyalangan SIP-50 markali simlarga almashtirish;

-xonadonga kiruvchi kabellar izolyatsiyalangan SIP-2x16 simlarga almashtirish;

-O'zbekiston MFY - VL-0,38 kV dan TPN№226 tipdagi GKTP-400 kVA transformatoriga almashtirish.

3.3. Loyihada transformator podstansiyasi TP "Oromgoh" fideridan PS 35/6 kV "Beruniy"ga ulanadi.

Elektr-energiyaning umumiy xisobi TPga o'rnatilgan shkafga TE-73 markali elektron-schetchik orqali aniqlash ko'zda tutilgan. Loyihada ASKUEga elektron hisoblagich ulanishi belgilangan.

Uy-joylarning elektr energiyasining sarfi elektron schetchiklar orqali TPga o'rnatilgan TES-70-R1ga ASKUE orqali ulanadi.

Loyihalashtirilayotgan yuqori-kuchlanishli tarmoq temir-beton to'siqlarga tortiladi. Temir-beton to'siqlarga VLI 0,38 temir-beton ustunlar SV 95-2, SV110-3,5 va SV105-3,5 markali o'rnatiladi.

Yuqori-kuchlanishli VL 10kV tarmoqqa temir-beton to'siqlar -2,1metr yer ostigacha o'rnatilishi loyihalashtirilgan, ushbu ishlar loyiha chizmasining 3.407.14-143-2- qismida ko'rsatilgan.

Temir-beton to'siq va ustunlar o'rnatish atrof-muhitda KMK 2.03.11-96 "Qurilish konstruksiyalarini korroziyadan ximoyalash" talablariga to'liq rioya etilishi belgilangan.

Temir-beton to'siq va ustunlar yer ostiga kiriladigan kismiga fundament quyulib issiq bitum bilan qoplanadi. Yer osti ustunlarining fundamentlariga suv o'tkazmaslik uchun bitkm qoplamasi o'rnatish ishlari loyiha chizmasining 12-RD varag'ida ko'rsatilgan.

3.4. Smeta hujjatlarni O'zbekiston Respublikasida amaldagi normativ-huquqiy bazadan foydalangan holda ishlab chiqilgan.

Hisob hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda shartnomaviy joriy narxlarga o'tish to'g'risida» nizomga muvofiq va Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 12-maydagi №226 «O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida»gi qarori va «Qurilish narxlarini kelishilgan joriy narxlarda aniqlash qoidalari» ShNK4.01.16-09 asosida tuzilgan.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

4.1. Toshkent NETK" Fjning " 2023-yil 23-iyunda berilgan №43-04/23-soni tarmoq xulosasida loyihaga quyidagi O'zbekiston MFY ishlar kiritilgan:

-uzunligi 2,70 km bo'lgan ikki sepli VLI-0,38 kV tarmoqni yangisiga almashtirish.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Toshkent viloyati "Toshkent XETK" AJ. 2023 y.

5.2. Loyiha tashkiloti - «ARM PROEKT MONTAJ» MChJ. 2023 y.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ishchi loyiha o'rganib chiqildi.

Ishchi loyiha natijalarini hisobga olgan holda qurilish montaj ishlarini bajarish jarayonida qurilish materiallarining markalari, o'rnatilayotgan jixozlarning seriyasi, quvvati va standartlariga qat'iy rioya

etilishini ta'minlash talab etiladi.

6.2 Ish hajmi, asosiy qurilish materiallari narxi, qurilish ishchilarining mehnat xarajatlari, qurilish mashinalari va mexanizmlarining ishlashi va boshqalarga aniqlik kiritildi.

6.3. Ekspertiza tekshiruvi natijalariga ko'ra, smeta hujjatlarining boshlang'ich qiymati joriy narxlarda 625 324,710 ming so'm QQS bilan taqdim etilgan qiymati 66 486,080 ming so'mga kamaytirilib, QQS bilan 558 838,630 ming so'mni tashkil etdi, shu jumladan:

-qurilish montaj ishlari - 498 963,060 ming so'm.

-QQS 12% - 59 875,570 ming so'm.

Kamaytirishga element resurs me'yorlari standartlarini, mashina va mexanizmlarning ishlatish xarajatlarini, asosiy qurilish materiallarining narxini, qurilish ishchilarining mehnat xarajatlarini aniqlashtirish va boshqalar orqali erishildi.

6.4. Ishchi loyihani tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda manfaatdor tashkilotlar bilan kelishib olishi kerak.

6.5. Yakuniy harajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugaganidan so'ng nazorat o'lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

6.6. Ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan loyiha-smeta hujjatlarining to'liqligi, ma'lumotlarning ishonchiligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

6.7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2003-yil 11-iyundagi 261-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Obektlarni qurish qiymatini shartnomaviy joriy narxlarda belgilash tartibi to'g'risida vaqtinchalik nizom»ga muvofiq va Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-yanvardagi 46-son qaroriga asosan tanlov natijalari, amaldagi meyoriy hujjatlar talablarini va boshqalarni hisobga olgan holda ishlarning qiymati buyurtmachi tomonidan hisobga olinadi.

7. Xulosalar.

7.1. Ishchi loyihasi **“Toshkent viloyati Yangiyo'l tuman O'zbekiston MFY hududidagi “Kelajakda g'azna ochiqdash va mahallalarni qo'llab quvvatlash tashabbusi” tartibida TP va VL-0,4/6/10kVli tarmoqni yangilash va rekonstruksiya qilish”** ob'ektining loyiha-smeta hujjatlari joriy narxlarda hujjatlar qiymati hisoblashga ko'ra kelgusida ko'rib chiqish va kelishishga tavsiya etiladi.

Ekspertiza natijalari asosida tavsiya etilgan narx shartnoma tuzishga asos bo'la olmaydi.

Bosh mutaxassis: GANIYEV MUROD KADIROVICH

Ishtirokchi ekspertlar:

KOMILOV SHOYADBЕК QUDRAT O'G'LI